

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**



**“TASDIQLAYMAN”**  
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot  
instituti rektori  
O.S.H. Bazarov  
2022 yil

**MENEJMENTNING TADQIQOT USULLARI**

**FANNING O'QUV DASTURI**

- Bilim sohasi:** 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq
- Ta'lim sohasi:** 410 000 – Biznes va boshqaruv
- Ta'lim yo'nalishi:** 70411201 – Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Fan/modul kodi RESMAN7.5	O'quv yili 2022-2023	Semestr I	ECTS - Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 6	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
<b>Menejmentning tadqiqot usullari</b>	90	90	180
<p><b>1</b></p> <p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan asosiy maqsad</b> - talabalarga menejmentning tadqiqot usullarini o'rgatish, vaziyatli holatlarda ulardan foydalanish bo'yicha ushbu mutaxassislikka mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Fan mazmunini o'rganish talabalarning boshqaruv tizimlarini tadqiq va tahlil qilishda, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashda, tadqiqot maqsadiga mos boshqaruv usullarini tanlashda, aniqlangan muammolar yechimlarini ishlab chiqishda, boshqaruv samaradorligini oshirishda iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlaridan foydalangan holda nazariy bilimlarini va amaliy ko'nikmalarini hosil qilishga xizmat qiladi.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> - talabalarni menejmentning tadqiqot usullari va nazariy-uslubiy asoslari bilan tanishtirish, ularda boshqaruvdagi vaziyatlarni tadqiq etish uslubiyoti bo'yicha fikrlashni rivojlantirish, menejment tadqiqotlarida umumilmiy va rasmiy-mantiqiy usullarini, operatsiyalarni tadqiq etish yo'llari va usullarini, tadqiqotlarning aniq usullarini, sifarga oid usullarini, statistik va ekonometrik usullarini qo'llash, menejmentda tadqiqotlarni rejalashtirish va tashkil etish hamda tadqiqotlarning samaradorligini baholash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).</b></p> <p><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Boshqaruvni rivojlantirishda tadqiqotlarning o'rni.</b></p> <p>Tadqiqot muammo va vaziyatlarni fahmlash, ularning paydo bo'lishini aniqlash, xususiyatleri va mazmunini ochib berish, universal hal qilish yo'llari va vositalarini topishdan iborat faoliyat turi sifatida. Boshqaruv tadqiqotining maqsadlari, vazifalari, obyekt va predmeta. Samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun menejmentdagi muammoli vaziyatlarni o'rganishning o'rni. Tadqiqot boshqaruv jarayonining boshlang'ich bosqichlaridan biri sifatida.</p> <p><b>2-mavzu. Menejmentda tadqiqotlarning nazariy-uslubiy asoslari.</b></p> <p>Menejmentda tadqiqotlar o'lkazish maqsadlari va vazifalari. Menejer faoliyatida tadqiqotchilik funksiyasining o'rni va vazifalari. Menejmentda</p>			

<p>3. Ergashev R.X., Tursunov I.E., Ravshanov A.D., Qurbanov A.B. Innovatsion iqtisodiyot. Darslik. T. "Voriz-nashriyot", 2020. 448 b.</p> <p>4. Ганчерёнок И.И., Горбачов Н.Н., Турунов И.Э., Пажкиев С.А. Цифровая экономика: управление информационными ресурсами./ Учебное пособие./-Т.: "Voriz-nashriyot", 2020. 207 с.</p> <p><b>Axborot manbaalari:</b></p> <p>1. <a href="http://www.google.co.uz">www.google.co.uz</a> - Qidiruv tizimi.</p> <p>2. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali</p> <p>3. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>4. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi.</p> <p>5. <a href="http://www.ziyounet.uz">www.ziyounet.uz</a> - Ta'lim portali.</p>	<p>7 <b>Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2022 yil "18" 06 dagi 11 - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</b></p>
<p><b>8 Fan/modul uchun ma'sullar:</b></p> <p>T.K.Ergashev - QarMII, "Bisnes va innovasion menejment" kafedrası dosenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi</p>	
<p><b>9 Taqrizchilar:</b></p> <p>X.S.Muxitdinov - QarMII, "Bisnes va innovasion menejment" kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori</p> <p>A.B.Qurbanov- Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.</p>	

<p>ijrosini ta'minlash usullarini bilish va ulardan foydalanish <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi</b>;</p> <p>- menejmentda tadqiqot usullarini rejalashtirish va ijrosini ta'minlash usullarini qo'llay olish, menejmentda tadqiqot usullarini ijrosini ta'minlash va ularning natijalaridan foydalanish <b>malakasiga ega bo'lishi kerak.</b></p>	<p><b>4</b></p> <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar.</li> </ul>
<p><b>5</b></p> <p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini muvaffaqiyatli topshirish.</p>	
<p><b>6</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Alesmasov V., Mamadaliyev SH.O. Ilmiy tadqiqot: metodologiya, metodika, ijodiyot. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2015. -102 b.</li> <li>2. Минякова Т.Е. Методы исследований в менеджменте. Учебное пособие. -Ульяновск: УлГТУ, 2017. - 112 с.</li> <li>3. Мельников В.П., Схиртладзе А.Г. Исследование систем управления. Учебник.-М.: Издательско Юрайт, 2016 -447 с.</li> <li>4. Гельруд Я.Д. Методы исследований в менеджменте для магистров. Электронное учебное пособие. -Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2013.-305 с.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Малин А.С., Мухин В.И. Исследование систем управления. Учебник.-М.: Издательский дом ГУ ВШЭ, 2005 - 399 с.</li> <li>2. Мухин В.И. Исследование систем управления. Учебник.-М.: Экзамен, 2007- 384 с.</li> </ol>	

<p>tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari. Boshqaruv konsepsiyasi. Tadqiqotchilik faoliyatining umumiy ta'rifi. Tadqiqotchilik yondashuvini tanlashga menejmerning shaxsiy xususiyatlari ta'siri.</p>	<p><b>3-mavzu. Boshqaruv vaziyatlarini tadqiqot etish uslubiyoti.</b></p> <p>Tadqiqot - boshqarish jarayonining dastlabki bosqichi sifatida. Fundamental va amaliy, miqdor va sifat, natural va qiymat, absolyut va nisbiy, nodir va majmuaviy tadqiqotlar. Qo'llanilayotgan tadqiqot turining tashkiliy omillar-qaror qabul qilish darajasi, kutilayotgan natija va boshqa omillarga bog'liqligi. Boshqaruv faoliyatida muammoli vaziyatlar. Tadqiqotda muammoni qo'yish darajalari: intuitiv (hissiy) anglash, mahalliy/lastirish, kompozitsiya (joylashtirish), baholash, asoslash, eksplikatsiya (tushuntirish).</p>
<p><b>4-mavzu. Menejment tadqiqotlarida umumilmiy va rasmiy-mantiqiy usullar.</b></p> <p>Tizimli yondashu v usullari (tizimli tahlil, modellashtirish), mantiqiy nazariy-usullar(abstraksiyalash, takkoshlash, induksiya, deduksiya), empirik-nazariy (eksperiment, ulchash, kuzatish, ta'riflash). Tadqiqotning asosiy maqsadlarini aniqlash. Muammoli vaziyat ta'rifi va dastlabki tahlili. Ilmiy muammo ifodasi. Farazlarni (gipotezalarni) ishlab chiqish. Axborotlarni yig'ish va tasniflash. Konsepsiya (ilmiy nazariya) ishlab chiqish bosqichlari.</p>	
<p><b>5-mavzu. Menejmentda operatsiyalarni tadqiqot etish usullari.</b></p> <p>Operatsiyalarni tadqiqot etish vazifalari, uslubiy tamoyillari va ishechi usullari - maxsus ilmiy va amaliy kurs sifatida. Amaliyotning turli sohalar masalalarini yechishda qo'llaniladigan optimallashtirishning matematik usullari: chiziqli, nochiziqli, dinamik dasturlash, o'yinlar nazariyasi, ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi va boshqalar. Operatsiyalarni tadqiqot etish usullari qo'llaniladigan muhim sohalar. Operatsiyalarni tadqiqot etish usullari yordamida yechiladigan boshqaruv masalalarining turlari.</p>	
<p><b>6-mavzu. Menejmentda tadqiqotning aniq (maxsus) usullari.</b></p> <p>Tadqiqotning aniq usullari - tadqiqot obyektini xususiyatlari, predmeti va vazifalarini aks ettiruvchi usullar sifatida. Hujjatlarining o'rganish usullari. Ijtimoiy tadqiqotlar usullari. Test sinovlari, sotsiometriya, ishbo'p o'yinlar, taqiyid etuvchi modelashtirish usullari. Ekspert baholash usuli. SWOT - tahlili usuli: mohiyati, qo'llash sohalar, kamchiliklari. SMART-tahlil usuli. Morfologik tahlil usuli. Aqliy hujum usuli. Delfi usuli. Maqsadlar daraxti usuli.</p>	
<p><b>7-mavzu. Menejmentda tadqiqotlarni rejalashtirish va tashkil etish.</b></p> <p>Tadqiqot dasturini shakllantirish. Tadqiqot maqsadlarini turkumlash. Tadqiqotning texnologik sxemasi. ITTKI dasturlarini rejalashtirish va</p>	

boshqarish. ITTKI ni tashkil etishni boshqarish. ITTKI ga doir qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayoni. ITTKI da resurslarni taqsimlash. Tadqiqotlar rahbarlarining xususiyatlari. ITTKI ning tashkiliy tuzilmalari va ularni rivojlantirish. Marketing tadqiqotlarini tashkil etish. Marketing tadqiqotlarining uslubiy asoslari. Marketingda tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari. Tovarlar bozorlari tadqiqotlari. Iste'molchilar tadqiqotlari. Bozorning firmalar tuzilishini tadqiq etish. Korxonaning ichki muhiti tadqiqoti. Marketing tadqiqotlari xizmati boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi.

#### 8-mavzu. Menejmentda tadqiqotlarning sifatga doyr usullari.

Sifatga doir usullar yordamida yechiladigan sifatga doir tadqiqotlarning asoslari, maqsadlari va vazifalari. Tashkilotda sifat tadqiqotlarini qo'llash sohalari. Marketing muammolarini yechishda sifat usullarini qo'llash. Jamoatchilik bilan munosabatlarni qurish (PR) sohasidagi muammolarni yechishda sifat usullarini qo'llash. Inson resurslarini boshqarishga doir muammolarni yechishda sifat usullarini qo'llash. Firma maqsadini aniqlash va strategiyasini ishlab chiqishda sifat usullarini qo'llash.

#### 9-mavzu. Menejmentda tadqiqotlarning statistik va ekonometrik usullari.

Ma'lumotlarni statistik va ekonometrik tahlil qilish usullari. Tariflovchi statistika usullari. Ma'lumotlarni ko'p o'lchamli statistik tahlil usullari. Menejmentda o'zaro bog'liqliklarni korrelyatsion – regression modellashirish.

#### 10-mavzy. Menejmentda tadqiqotlarning samaradorligi.

Tadqiqotlar samaradoligi tushunchasi. Tadqiqotlar samaradorligini shakllantiruvchi asosiy omillar. Boshqaruvning tadqiqotchilik salohiyati. Menejmentda tadqiqotlar samaradorligini ta'minlash tamoyillari.

#### III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Boshqaruvni rivojlantirishda tadqiqotlarning o'rni.
2. Menejmentda tadqiqotlarning nazariy-uslubiy asoslari.
3. Boshqaruv vaziyatlarini tadqiq etish uslubiyoti.
4. Menejment tadqiqotlarida umumilmiy va rasmiy-mantiqiy usullar.
5. Menejmentda operatsiyalarni tadqiq etish usullari.
6. Menejmentda tadqiqotning aniq (maxsus) usullari.
7. Menejmentda tadqiqotlarni rejalashtirish va tashkil etish.
8. Menejmentda tadqiqotlarning sifatga doyr usullari.
9. Menejmentda tadqiqotlarning statistik va ekonometrik usullari.

10. Menejmentda tadqiqotlarning samaradorligi.  
Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Menejmentda muammoli vaziyatlarni tadqiq etishda umumilmiy va rasmiy-mantiqiy usullardan foydalanish.
  2. Menejment tadqiqotlarida aniq usullarning tutgan o'rni.
  3. Menejment tadqiqotlarida statistik va ekonometrik usullardan foydalanishning ahamiyati.
  4. Menejmentda tadqiqotlarning samaradorligini oshirish muammolari.
  5. Boshqaruv tizimini tadqiq etishda eksperiment usuli: tushunchasi, turlari, ularni rejalashtirish.
  6. Tafakkur fikrlash shakli sifatida.
  7. Xulosa chiqarish fikrlash shakli sifatida.
  8. Tushuncha shakllantirish fikrlash shakli sifatida.
  9. Savol berish mantiqiy voqelik sifatida.
  10. Faraz qilish mantiqiy voqelik sifatida.
  11. Isbot mantiqiy voqelik sifatida.
  12. Tasniflash mantiqiy voqelik sifatida.
  13. Boshqaruv maqsadlarini tadqiq etish va loyihalashtirish.
  14. Boshqaruv funksiyalarini tadqiq etish va loyihalashtirish.
  15. Boshqaruv tuzilmalarini tadqiq etish va loyihalashtirish.
  16. Boshqaruv qarorlarini tadqiq etish va loyihalashtirish.
  17. Tizimli tadqiqotlarda boshqaruv hisobi.
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3

#### V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba bilishi kerak:

- korxonaning ichki va tashqi muhitlarini tahlil qilish modellari, menejmentda tadqiqot usullari samaradorligini oshirish va takomillashtirish uslubiyatlari **haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi**;
- menejmentda tadqiqot usullarining yangi analitik usullarini ishlatishni; raqobat muhiti tadqiq etish, menejmentda tadqiqot usullarini rejalashtirish va